

## HAJVIY ASARLARIDA ABDULLA QODIRIYNING SO'Z TANLASH MAHORATI

**Pardayeva Madixabonu Xakimovna**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,*

*Boshlang'ich ta'lim kafedrası*

*katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)*

*[Tel: +998906475018](tel:+998906475018)*

***Annotatsiya.** Maqolada Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tili leksik jihatdan chuqur o'rganilganligi, hajviyalarida forsiy, arabiy va ruscha so'zlarni zarur o'rinlardagina kerakli kayfiyatni hosil qilish uchun qo'llay olganligi, hajviy matnlarda eng ko'p turkiy, ya'ni o'zbekcha, nisbatan ko'proq arabcha va shu hajmda forsiy so'zlar, eng kam miqdorda ruscha so'zlar qo'llanilganligi misollar asosida tahlil qilingan.*

***Tayanch so'zlar:** arabiy, ruscha, turkiy, forsiy, o'zlashma qatlam, leksema, arxaizm, lug'aviy birliklar, poetik nutq.*

O'zbek tilining faol leksikasida so'zlar o'z va o'zlashma qatlamga bo'linadi. Ijodkorlar tilga murojaat qilganida har ikkisidan nutq vaziyatiga ko'ra baravar foydalanadi. Ayrimlari asosan, o'z qatlamga doir so'zlarni qo'llasa, ba'zi ijodkorlar o'zlashma qatlam so'zlarini ishlatishga majbur bo'ladi. Jumladan, A.Qodiriy ham o'zi o'zbek tili jonkuyari bo'lsa-da, beixtiyor yoki majburiy tarzda fors-tojikcha, arabcha va maxsus ruscha so'zlardan foydalanadi. Qodiriyning ruscha so'zlardan foydalanishi asosan, kinoyaviy xarakterdadir. Hatto ayrim ruscha so'zlarning talaffuzi va imlosini xalq tilidagi variantini qo'llab kulguli vaziyatlarni uyushtira oladi. [...inqilob boshlanib oq podshohimiz taxtdan tobutg'a olinur. Birinchi martdan boshlab xalq og'zinda «Mekalay taxtdan tushurilib yangi hukumat tuzulubdir», degan xabarlar yuriy boshlar. Lokin bu xabarlarga bizim «Oxund domla» sira ishonmaydir.] Bu o'rinda "Mekalay" xalq tilidagi talaffuz variantidir. O'zbek tilida talaffuzda ba'zan burun tovushlari almashinib qolishi mumkin.

“Leksemaning (sememaning) eski bo'lishi boshqa-yu, eskilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Arxaizm hozirgi tilning lug'atiga xos bo'lib, boshqa lug'aviy birliklardan eskilik bo'yog'i borligi bilan farqlanib turadi. Hozirgi leksik ma'nolar bosh ma'no va hosila ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ ma'no va figural ma'no deb bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Bu tasniflar biri ikkinchisini istisno qilmaydi, balki ayni bir hodisaga har xil yondashishni aks ettiradi. Leksik ma'noning yuqoridagicha turlari ko'pma'noli leksemalar asosida belgilanadi.”

[1]

Eski leksemani boshqa tilga mansub leksemani ishlatishdan farqlash kerak. Ba'zan na hozirgi o'zbek tilida va na o'tmish o'zbek tilida yo'q leksema ni ishlatish

ham uchraydi. Bunday leksema o‘zbeklar uchun mutlaqo notanish bo‘ladi, chunki bular o‘zbek tili lug‘atidan emas, balki boshqa til lug‘atidan olib ishlatiladi”. [2]

Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko‘rinishi qo‘shimcha deyiladi”. [3]

Sh. Shoabdurahmonov “Shaxs otlaridan yasalganda: a) qarindoshlik ma‘nosini anglatuvchi so‘zlardap yasalgan otlar shu matnni umumlashtirib, holat tarzida bildiradi: ota + lik, aka + lik, tog‘a + lik kabi; b) hast (umr)ning ma‘lum davri ma‘nosipi anglatuvchi otlardan' yasalgan so‘zlar shu ma‘noni holat tarzida ifodalaydi: bola + lik, yigit + lik, qiz+lik, kelin+lik, kuyov + lik kabi; v) kasb, amal-unvon yoki boshqa ish-faoliyat egasini bildiruvchi otlardan -lik affiksi yordamida yasalgan so‘zlar shu kasb, amal-unvon, ish-faoliyat nomini bildiradi: dekan + lik, mudir + lik, dirijyor+lik, o‘qituvchi + lik, shofyor+lik, bos-machi + lik kabi”. [4]

Qodiriy hajviyalarida qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlar davr nuqtai nazaridan eskirgan so‘zlar hisoblanadi.

[ Damingni chiqarma! Bu xabar mastravoylarning xabari! — Mastravoy degan kim taqdir? — Ha, ko‘chalarga tosh teradirganlar-chi, ana shunlarni mastravoy derlar, shunlarning xabariga ishonib bo‘ladirmi? Oradan o‘n besh kun o‘tub ketadir... Nekalayning politsa — mirshablari, qozilari, mingboshilari o‘rundan chiqarilib boshqalar saylana boshlar. ] Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tilimizda 20-asr boshlarida kirib kelgan ruscha so‘zlar bo‘lib ularning talaffuzi ham milliy tilga moslangan. Muallif ataylab shunday variantni qo‘llagani aniq.

Hajviyaning ayrim o‘rinlarida arabiy va ruscha istilohlar ataylab aralash qo‘llanilganini ko‘rish mumkin, bunda ham muallifning o‘z qahramoni dunyoqarashi, tafakkur tarzi, nutq madaniyatini qo‘rsatish maqsad qilingani seziladi. [Domlamizning ruschadan xabari bo‘lmasa ham hokim mahkamasining mirzasi yog‘indan ukazni berishda: «...Madrasinki pervoy mudarrisu gospodinu Mullasharif Oxunu Mulla Zarif Oxunovu» deb o‘qub berishi esiga tushub o‘shal vaqt butun a‘zosi til bilan onglatib bo‘lmasliq bir lazzat bilan jimirlashib ketkani esiga kelib ketdi. Gospodin pervoy mudarrisni ta‘yin etib chiroyliq qilib qo‘yilg‘an burmacha imzolar bilan semurug‘ qushli tamg‘alarg‘a ko‘zi tushub o‘tdi. Ammo shul vaqt «hurriyat, saylov» shart etib esiga tushub ketdi. Ukaz qo‘lidan yerga tushub ketayozdi...] bunday tarzda jummalarni shakllantirish ma‘lum bo‘lib turganidak o‘quvchida beixtiyor kulgu hosil qiladi.

Abdulla Qodiriy o‘z davrining katta muammolarini qalamga olar ekan bu vaqtdagi siyosiy jarayonlarga ham munosabat bildirib ketadi. Shu o‘rinda bir muhim mulohazani aytib o‘tish o‘rinli, bizningcha, adib mazkur so‘zlar orqali diniy xurofot, yangicha hayot tarzi, ruslashishi jarayoni ketayotgan bir paytni tasvirlamoqchi bo‘lgan bo‘lsa, arabiy va forsiy, shuningdek ruscha so‘zlar ixtiyorsiz ravishda iste‘moliga kirib kelavergan bo‘lishi mumkin. [Xoin ulamo — Turkiston muxtoriyati e‘lon qilingunga qadar Umum Turkiston musulmonlarining to‘rtta syezdi bo‘lib o‘tadi. Bu syezdlarda «Ulamo» jamiyatining mutaassib ulamolari taraqqiyparvar «Sho‘roi islomiy» va «Markaz Turkiston sho‘rosi» uyushmalari bilan doim raqobatda turib, Turkistonni idora shakli xususidagi masalada zamon talabiga javob bermaydigan eski tartib-usullarni, xonlikni yoqlab chiqadilar.] Matnda “Syezd” istilohi markaziy nuqtada turibdi. Boshqa barcha fikrlar mana shu hodisani izohlash, tushuntirish, munosabat bildirishga yo‘nalgan.

Kuzatishlardan ma‘lum bo‘lib turibdiki, Qodiriyning so‘z tanlash mahorati tanlangan mavzuga nihoyatda bog‘liq ekan. Agar biror bir milliy qadriyatga bog‘liq asar bo‘lsa, uning matni tarkibida, albatta, milliy so‘zlar ko‘p bo‘ladi. Siyosiy-ijtimoiy mavzulardagi hajviyalarida baribir forsiy, arabiy va ruscha so‘zlar baravar qo‘llanishda davom etmoqda. [Ilgari bolshevik og‘alarning, kimning otini, kimning molini, kimning yerini tortib oluvlarig‘a qanday ma‘ni berishga ojiz bo‘lg‘an Ohund domlamiz «Miftohul-jinon» va amsoli kitoblardan istixroj etib: «Zamona oxir bo‘lib, qiyomat yaqinlashg‘an ekak, bu kungi bolshevik deganimiz ya‘juj-ma‘juj va yo dobbatul-arz bo‘lur» deb o‘ylar edi.] mazkur matnda arabcha so‘zlarning nisbati ko‘proq eknligini ta‘kidlash lozim.

Muallifning romanlari matnida boshqacha manzara, ya‘ni o‘zbekcha so‘zlar ko‘p, arabcha so‘zlar sezilarli darajada kam. Diniy ma‘rifiy xarakterdagi matn tahlil qilinganda esa arabcha so‘zlar ko‘pligini anglash qiyin emas. So‘zlarni jadvalga joylashtirsak quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

1.3-jadval

	O‘zbekcha (turkiy)	Fors-tojikcha	Arabcha	Ruscha
	Ulus	xabar	istixroj	syezd
	Oqcha	mardikor	mutaassib	bolshevik
		mo‘y	namoz	rabochiy
		ravish	kuffor	galava
		ro‘za	avliyo	Nalog
		shubha	mal‘un	Pajaliska
			nubuvvat	Gospodin

# O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA’LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

				pervoy
			mudarris	Ukaz
			Miftohul-jinon	
			inqilob	
			vojib	
			muloqot	
			musulmon	

Adib shariat mavzusida hikoya qilishni boshlasa, demak arabcha istilohlar ko‘proq ishlatilishi aniq. [Odamlarini uch yuz otmish kun ro‘za, yigirma to‘rt soat namoz o‘quvchi «avliyo» deb biladir. Bu yerda muallimchilik qilib yurgan asir turklarni ul turk deb bilmaydir. Balkim yolg‘ondaki turk oti ostig‘a yashiringan kuffor, din buzuvchi, armani deb bilganidan ushbu mal’unlarga ergashib yurg‘an musulmon bolalarig‘a chin ko‘ngildan achinadir...] Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar arabcha, eng muhimi, shariat mazmunini anglatuvchi atamalardir.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida ko‘plab o‘zbekcha so‘zlarni qo‘llab, milliy romanchiligimiz, hikoyachiligimizga katta hissa qo‘shdi. Adibning hajviy asarlari tili ham leksik jihatdan chuqur o‘rganilishi kerak. Muallif o‘z hajviyalarida arabiy va ruscha so‘zlarni zarur o‘rinlardagina kerakli kayfiyatni hosil qilish uchun qo‘llaydi. Kuzatuvlardan ma‘lumki, hajviy matnlarda eng ko‘p turkiy, ya‘ni o‘zbekcha, nisbatan ko‘proq arabcha va shu hajmda forsiy so‘zlar, eng kam miqdorda ruscha so‘zlar qo‘llanilgan. Ta’kidlash joizki, ijodkor birorta ruscha istilohni maqsadsiz ishlatmagan.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Universitet. 2006. 64-b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Universitet. 2006. 61-b.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., M.Qurbonova, Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T., 2009 131-b.
4. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A, Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi. 1980. 161-b.
5. Julqunboy «Tong» jurnali — 1920 yil, 2-son, 125-son, 56-64-betlar.